

IJTIMOIIY TARMOQLARNING BUGUNGI INSONIYATGA TA'SIRI

*F. Najmiddinov*¹

Annotatsiya:

Bugungi rivojlanayotgan zamonda insoniyatning turmush tarzidan va imkoniyatlardan foydalanish darajasi yaqqol oshib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunga ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga jadallik bilan kirib kelganini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy tarmoqlar bo'lmish instagram, facebook hamda telegram insonlarga, ayniqsa yoshlarga o'z salbiy va ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu ijtimoiy tarmoqlar shu darajada ijtimoiylashib ketdiki, odamlar orasidan jonli muloqotni olib qo'ydi. Aslida daxshatli bo'lgan xabarlarni ko'z o'ngimizga oddiy ma'lumotdek namoyon qilib qoydi, qolaversa, qog'ozli ma'lumot manbai bo'lmish gazeta va jurnallarning yoshlar qo'lidan tushishiga sababchi bo'ldi. Bundan tashqari, jamiyat orasida "blogger", "vayner", "tik-toker" degan olinma so'zlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning rivoji, imkoniyatlari va uning insonlarga beradigan foydali va zararli tomonlari keng e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, mazmun, kamchiliklar, qaramlik, imkoniyatlardan foydalana olmaslik

doi: <https://doi.org/10.2024/3b6hwa08>

Kirish

Bugungi hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilolmaymiz undan yangi-eski va ishonarli va ishonarsiz ma'lumotlarni ham uchratishimiz tabiiy hol. Xo'sh ijtimoiy tarmoqlarda odamlar qay yo'sinda foydalanishmoqda kerakli kasb egalari yoki ma'lum yosh doirasidagi odamlar undan foyda olishyaptimi yoki zarar? Biz ulardan ma'lumot olish uchun foydalanyapmizmi yoki ma'lumot almashinish uchunmi? Bu kabi savollar hayotning bu jabhasida tug'ilishi tabiiy hol albatta. Avvalo bu tarmoqlarning yaratilish ta'rixi qamrovi va imkoniyatlari borasida fikrlashsak, telegram ijtimoiy tarmog'i 2013-yil aka-uka Nikolay va Pavel Durovlar tomonidan ishlab chiqilgan aloqa tarmog'i hisoblanib uning asosiy egasi esa Pavel Durov hisoblanadi.

Shu jumladan, 2010-yil 5-mart kunida Kevin Systrom tomonidan yaratilgan Instagram tarmog'i o'z ichiga xabar almashish va xabar tarqatish imkoniyatlarini qamrab oladi. Bugungi kunda bizness olamida allaqachon o'z o'rnini topib ulgurdi va dunyo bundan manfaatdor bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Kanadaning Makgill universiteti olimlari Facebook, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar qay tarzda do'st tanlashlarini aniqlashga qaror qilishdi. Ma'lum bo'lishicha, foydalanuvchilar o'zlaridan ko'ra ko'proq do'stga ega kishilar bilan do'stlashishni ma'qul ko'rishar ekan.

¹ *Fazliddin Najmiddinov Xamiddin o'g'li, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

Tadqiqotchilarning fikricha, internet-portallarda qandaydir iyerarxiya mavjud. Odamlar ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchilariga bajonidil do'stlik so'rovi jo'natishadi va shu tariqa o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashadi. Foydalanuvchilar bu holatni "do'stlik paradoksi" deb atashdi. [1]

Olib borilgan bir qancha izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqda "o'tirgan" foydalanuvchi qanchalik ko'p vaqtini internetda onlayn o'tkazsa, uning tushkunlikka tushish darajasi shuncha ortib boradi.

Dunyo tadqiqotchilarining fikriga ko'ra 18-19 yoshlilar odatda bir hafta davomida o'rtacha 30 marotaba ijtimoiy tarmoqqa kirishar ekan va har kuni 60 daqiqa vaqt sarf qilishar ekan. Har bir narsa asta-sekinlik bilan ro'y bergani kabi olimlar ham ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketgan "addictor" larni ham birdaniga undan voz kechmaslikka chaqirishadi. Go'yoki, narkotik modda ta'siriga tushib qolgan odamni doridan birdan mahrum qilsa ro'y beradigan holatdek bu. Shu sabab Nottingham Trent universiteti olimlari, kishilar ruhiy xarakteristikasi, shaxs tipi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish to'g'risida ilmiy o'rganib chiqdi va tadqiqot egalari quyidagi xulosaga keldi: "Facebookka o'rganib qolish sindromi haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p vaqt o'tkazuvchi bir qator kishilarda shaxsiy hayotdan qochish, butun e'tiborni Facebookka qaratish haqiqatdan uzoqlashish kayfiyatning keskin tushishi, real hayotdan uzoqlashish istaklarni yashirish kabi qaramlikning barcha belgilari kuzatiladi" [2]

Ijtimoiy tarmoqsiz hayot

Biz bugungi kunda ijtimoiy tarmoqsiz hayotni tasavvur qila olmaydigan darajaga kelib bo'ldik, agar u bo'lmasa insonlar qanaqa qiyinchilik va muammolarga duch kelar edi.

Telegram, Instagram va Facebooksiz davom etayotgan hayot ba'zi insonlar uchun fojia bo'lishi mumkin, ba'zilar uchun esa maroqli hayot bo'lishi mumkin. Bu qanchalik haqiqatga yaqin deb o'ylaysiz?

Avvalo biz bu tarmoqlar orqali olayotgan ijobiy natijalar to'g'risida to'xtalsak, 2013-yilda telegram ijtimoiy tarmog'i ishga tushgan bo'lsa 2014-yilda esa u butkul hayotimizni qamrab oldi va foydalanuvchilar bundan so'ng telegram orqali olib boriladigan ko'plab businesslarni yo'lga qo'ydilar. Bundan kelib chiqadiki, telegramsiz hayot faoliyatini insonlarning har bir yosh qatlamida va ishchilar faoliyatida ko'rishimiz mumkin. [3]

Davlatning kelajak poydevori hisoblanmish talabalar misolida olsak, telegram ijtimoiy tarmog'isiz nafaqat talabalar balki ustoz-o'qituvchilarning ham hayoti katta o'zgarishlarga yuz tutishini ko'rishimiz mumkin, Chunki, unda almashiniladigan ma'lumotlar, ustozlar tomonidan talabalar uchun beriladigan onlayn topshiriqlar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotni bugungi kunda ommalashgan kasb turi-bloggerlar va vaynerlar faoliyatida ham tasavvur qilish qiyin hisoblanadi. Chunki bu faoliyat ijtimoiy tarmoqlar ustiga qurilgan. Ommaga kunlik "qaynoq" ma'lumotlar yuborib turadigan va Xalqni qiynab turgan muammolarni tegishli soha vakillariga yetkazadigan bloggerlik kasb egalari o'z faoliyatlarini internet tarmog'iga bog'lagan, bu hayot mana shu kasb egalari uchun fojia bo'lishi mumkin. [4]

Ijtimoiy tarmoqlar, xususan telegram erkin muloqot qilish, to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni almashishda yaqqol misol bo'ladi desak mubolag'a qilmagan bo'laman. Aytish joizki, bugungi XXI asr texnologiyalar rivojlangan va ogohlik davr talabiga aylanib borayotgan bir zamonda, turli xil aqidaparastlarga va

taqiqlangan internet saytlari orqali terroristika guruhlarga qo'shilib qolayotgani hech birimizga sir emas.

Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b dotsenti Yaqitjan Buvabayevna Kadirova va Xorijiy tillar fakulteti talabasi Shahzoda Komilovalar ijtimoiy tarmoq faoliyatiga quyidagicha fikr bildiradilar "Hozirgi globallashuv zamonida odamlar ongida g'oyaviy bo'shliq yaratishdan manfaatdor bo'lgan kuchlar ko'p. Ular terrorchi va ekstremistlar, aqidaparastlar, "ommaviy madaniyat" tarafdorlari kabi buzg'unchi kuchlar bo'lib ular bugungi kunda ma'nan yetuk bo'lmagan, yurt koriga yaramaydigan insonlarga, olamdagi notinchliklarga, jinoyatchiliklarga, jaholatga, begunoh bolalarning etim qolishiga sabab bo'lishmoqda".

Telegramsiz hayot borasida so'z borar ekan o'zim bilan yuz bergan qiziq voqea haqida to'xtalmoqchiman: " Bir yil oldin ishlatib yurgan smartfonim buzilib qoldi. Uni qayta sozlatish uchun mablag` yetarlicha emasdi. Bor pulimni kantraktinga to'lab yuborgandim. Shu bois telefonsiz 1 oy davomida yashadim. Lekin rossa qiynalgandim. Chunki instagram va telegram profillarimga kira olmasdim. Bu hattoki men uchun narkotik moddadan qutulishdek qiyinchilik olib keldi desam adashmagan bo'laman, chunki ijtimoiy tarmoqqa bo'lgan qaramlik menda allaqachon uyg'ongan edi.

Ko'rib turganimizdek ijtimoiy tarmoqlar foydadan ko'ra ziyonga ishlamoqda va buni biz " XXI asr epidamiyasi" desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

2020-2021 yillar davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida olib borgan izlanishlarim shuni ko'rsatadiki, u yerdagi bo'lajak shifokorlarning instagram ijtimoiy tarmog'iga mukkasidan ketganligini ko'rib kelajak bemorlariga achinib ketdim. Tinmay izlanishlar, tabobat ilmidan o'rganish o'rniga vaqtini ijtimoiy tarmoqda " o'tirish" bilan o'tkazayotgan qolaversa insonlar najotkori bo'lmish bo'lajak shifokorlarni ko'rish insonni hayron qoldirish bilan birga kelajakdan qo'rquv hissini uyg'otishi tabiiy hol nazarimda.[5]

Xulosa

Insoniyat tug'ilibdiki nima bilandir band bo'ladi xoh u foydali bo'lsin xoh zarar. Bugungi kunda qilayotgan har bitta ishimiz ertangi kunimizga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ayta olamanki,, ijtimoiy tarmoq bizga berayotgan salbiy jihatlar, biz undan olayotgan foydali narsalar, ma'lumotlar va qulayliklardan ustun kelayotgani, bugungi kun odamlari uchun oddiy holga aylanib borayotgani hech birimizga sir emas albatta buni yon atrofimizdan va ko'cha-ko'yda telefonga termulish oqibatida turli xil avtohalokatga uchrayotgan yoshlar va kattalar misolida va internetda " video-kontent" ko'rish natijasida bir birini pichoqlab qo'yayotgan yosh aka-ukalar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. *kun.uz* nashriyotida 2016.05.23 da chiqqan 'Olimlar ijtimoiy tarmoqlarda kim do'stlar safiga birinchi bo'lib qo'shilishi' mavzusidan
- [2]. *Daryo.uz* nashriyotida 2017.07.06 da chiqqan 'ijtimoiy tarmoqlarning 6ta ilmiy asoslantirilgan xavfli jihati mavzusidan
- [3]. *www.aniq.uz*
- [4]. *Shohida Isroilova maqolasidan*
- [5]. *Nottingham Trent universiteti olimlari nutqidan*